

# BUXORODA DEMOGRAFIK JARAYONLAR: TARIX VA HOZIRGI ZAMON



Nafisa HAYOTOVA,  
Buxoro Davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro shahrida demografik vaziyat shakllanishining xususiyatlari, ko'rsatkichlari va omillari ko'rsatilib, aholining o'sish dinamikasi va yosh tarkibidagi o'zgarishlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** demografik vaziyat, migratsiya jarayonlari, aholi tarkibi, mehnat resurslari, demografik siyosat, aholining tabiiy o'sishi, urbanizatsiya darajasi.

**Аннотация:** В статье представлены особенности, показатели и факторы демографической ситуации в Бухаре, проанализирована динамика роста населения и возрастной структуры.

**Ключевые слова:** демографическая ситуация, миграционные процессы, состав населения, трудовые ресурсы, демографическая политика, естественный прирост населения, уровень урбанизации.

**Annotation:** This article presents the features, indicators and factors of the demographic situation in Bukhara, analyzes the dynamics of population growth and age structure.

**Key words:** demographic situation, migration processes, population composition, labor resources, demographic policy, natural population growth, level of urbanization

**M**a'lumki, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish umummilliyl tadbiri o'tkaziladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning tashabbuslari bilan aholini ro'yxatga olish borasidagi 2019-yil 5-fevralda "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (PF-5655-son) Farmoni qabul qilindi. Shu asosda 2020-yilning mart oyida "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi qonun imzolandi. Aholi iste'molchi va ishlab chiqaruvchi kuch sifatida davlat taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda demografik jarayonlar albatta iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda. Jumladan, Buxoro shahri aholisi misoldida demografik jarayonlardagi o'zgarishlarni ham ko'rishimiz mumkin.

"O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish birinchi marta 1897-yilda Turkiston General Gubernatorligi tomonidan o'tkazilgan. 1897-yilgi aholi ro'yxati o'sha davrdagi Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv, Kaspiy orti va Amudaryo bo'limlarini qamrab olgan bo'lib, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari hududlarida yashovchi aholi mazkur yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati tadbirlarida hisobga olinmagan" [9, b. 8]. "Buxoro amirligi xududida istiqomat qilgan aholi soni va milliy tarkibi to'g'risidagi ayrim ma'lumotlar ba'zi bir manbalarda" [11] uchraydi.

"XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi 28 ta beklik va tumanlardan ibo-

rat bo'lib, bekliklar aholisining soni 35 mingdan 200 minggacha bo'lgan oraliqda doimiy o'zgarib turgan" [8, b.13]. "Amirlikda 426675 ta xo'jalik bo'lib, 2134240 aholi soni bo'lgan. Shundan 1114960 erkak kishi, 1019280 nafar ayollarni tashkil qilgan" [12,b.377].

XX asrning birinchi choragida kelib Milliy hududiy chegaralarinish o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish ishlari olib boriladi. Lekin to'plangan ma'lumotlar Buxoro vohasi aholisining o'sishi va etnik tarkibini to'la yoritmagan. Ma'lumotlarga ko'ra, "1924-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalarida Buxoro va G'ijduvon uezdlarida 301955 kishi yashagan. Ulardan 248 253 kishi o'zbek millatidan bo'lib, bu aholining 82 foizini tashkil qilgan. Shu qatori qabilaviy kelib chiqishi noma'lum 62 mingdan ortiq o'zbeklar bo'lib, ulardan 26205 nafari Xorazmdan kelgan muhajirlar edi" [6,b.149,262].

"Sovet hukumati davrida O'zbekistonda 1924, 1939, 1970, 1979, 1989-yillarda aholini ro'yxatga olish tadbirlari amalga oshirilgan. Ushbu ma'lumotlarda Buxoro shahri aholisining o'sish dinamikasini kuzatsak, yillar davomida aholi o'sishini ko'rishimiz mumkin" [13].

1939-yilda				
Buxoro viloyati	Erkaklar	Ayollar	Jami	
	26794	23517	50311	
1959-yilda				
Buxoro shahri	32929	36325	69254	
1970-yilda				
Buxoro shahri	56825	54775	111600	
1979-yilda				
Buxoro shahri	95131	89829	184960	
To'qimachilik tumani	33642	31674	65316	
Fayzullo Xo'jaev tumani	61489	58155	119644	
1989-yilda				
Buxoro shahri	111513	112421	223934	
To'qimachilik tumani	51779	53098	104877	
Fayzullo Xo'jaev tumani	59734	59323	119057	

Ma'lumki, aholi sonining ko'payishiga bir qancha sabablar ta'sir qiladi. Jumladan, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ayniqsa hudud uchun xos bo'lgan demografik omillar ta'sirida yuz beradi. O'z navbatida bu omillar bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lib, sovet davrida voha aholisining o'sishi sabablardan biri, ko'p bolali oilalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ishchi kuchi sifatida aholining ko'payishidan davlat manfaatdor bo'lgan. Shu bilan birga Buxoroda sanoat korxonalarining rivojlanishi natijasida qishloqlardan ishchi kadrlarni ko'chib kelishi hisobiga shahar aholisi ham yildan yilga o'sib borgan.

"1995-2005-yillarda Buxoro viloyatida tug'ilish 27,3 mingtadan 19,8 mingtaga, Buxoro shahrida tug'ilish shu yillarda 17,6 mingtadan 13,3 mingtaga tushganini ko'rishimiz mumkin"[2,b.43]. Umuman olganda Buxoro viloyatida tabiiy o'sish 21,9 mingdan 15,3 mingga tushganini, Buxoro shahar aholisi 1995-2005 yillarda tabiiy o'sishi 12,6 mingdan 8,6 mingga tushganini ko'rishimiz mumkin. Qariyb 30 yil davomida (1991-2020-yillar) Buxoro viloyat aholisi 1.708 ming kishidan, 1939.6 ming kishiga, yiliga o'rtacha 7720 kishiga, shahar aholisi 231ming kishidan 280,8 ming kishiga, ya'ni yiliga o'rtacha 1717 ming kishiga ko'paydi.

Viloyatda aholi sonidagi o'zgarishlar uning bevosita yosh tarkibi bilan ham bog'liq. Ma'lumki, O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi XX asrning 90-yillarida boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi (2020 yil) 62,1%ni tashkil qiladi. Buxoro viloyatida 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 26%ni, 16-29 yoshdagilar ulushi –60%, katta yoshdagilar ulushi-13,9 %ni tashkil etadi. Buxoro vohasida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1990-yilda 67 yosh, 2010 yilda 73,7 bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga kelib o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 76,5%ni tashkil qilmoqda.

Buxoro bo'yicha aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar tahlili asosida shunday xulosa qilish mumkinki, bolalar soni mutazam kamayib, aksincha, mehnatga layoqatli yoshdagagi va undan katta bo'lgan aholi soni ortib bormoqda. Bunday ko'rsatkichni boshqa viloyatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida respublikaning barcha hududlarida aholining "quyidan" qarish jarayonini borayotganligidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1991-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining qarish indeksi 6,1 punktga ko'paygan. Albatta, ko'rileyotgan davarning turli oraliqlarida hududlar miqyosida aholining qarish indeksining ko'payish sur'ati turlicha bo'lgan. Jumladan, "1991-1995-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida aholining qarish indeksi – 0,8, Toshkentda – 0,1, Navoiy va Xorazm viloyatlari – 0,6, Toshkent shahrida – 2,2 punktga o'sgan" [5, b. 321]. Bu tendensiya 2000-2010-yillarda respublikaning barcha hududlariga ular aholisining yosh tarkibida bolalar mutlaq sonining qisqarishi hisobiga qarish indeksi ko'rsatkichi ortishi bilan yoyildi. Hisoblab chiqilgan aholining qarish indeksiga asoslangan holda hududlar aholisining keksayish darajasini jahonda qabul qilingan demografiya mezoniga ko'ra, Buxoro ikkinchi guruhga, ya'ni aholisi o'rtacha darajada keksayotgan viloyatlar (20,0-30,0%) qatoriga kiradi.

O'tgan davr mobaynida viloyatda shahar aholisining ulushi 36,8 %, qishloq aholisi ulushi 63,2 %ni tashkil etib, 30 yil ichida jami aholi tarkibida shahar aholisining ulushi 32,5 % dan 36,8 % ga ortgan,

qishloq aholisiniki esa 67,5 % dan 63,2% gacha kamayganligini ko'rshimiz mumkin. "Qishloq aholisi sonining qisman kamayganligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009 yil 13 martdagি 68-sonli qaroriga ko'ra respublikadagi 966 ta qishloq punktiga shaharcha nomi berilganligi bilan izohlanadi. Hukumat qaroriga muvofiq, jumladan Buxoro viloyatida 59 ta qishloq shahar posyolkalariga aylantirildi"[10].

Bugungi kunda O'zbekistonning barcha hududlarida urbanizatsiya darajasi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Viloyatda shahar aholisi soni yildan-yilga ortib borgan. Bunga aholining tug'ilishi, tabiiy o'sishi hamda mexanik harakati, ya'ni migratsiya jarayonlari katta ta'sir ko'rsatgan. "2001-yilda Buxoro shahrida aholi zichligi 1 km. kv.ga 448 ming kishidan to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatgich 4002,9 ming kishini tashkil qilgan"[3].

Buxoro aholi demografiyasida migratsiya jarayonlari ham alohida o'rın egallaydi. Chunki aholi migratsiyasi ijtimoiy jarayon bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va aholi sonining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, migratsiya aholining joylashuvi va uning hududiy tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. "Mustaqillikning dastlabki yillarda ko'pgina viloyatlarda bo'lgani kabi Buxorodagi migratsiya jarayonida ko'chib ketganlar salmog'i yuqori bo'lgan. Xususan, 1994 yilda respublikadan 179,2 ming kishi ko'chib ketgan bo'lsa, 38,0 ming kishi ko'chib kelgan" [7,b.128].

Bugungi kunda Buxoro shahri aholisining milliy-etnik tarkibi turlicha bo'lib, bu o'z navbatida shaharning o'ziga xos etnomadaniy tarixidan guvohlik beradi. Shaharda mahalliy o'zbek va tojik millatlari bilan bir qatorda, eroni, turkman, qoraqalpoq, tatar, koreys, arman, yahudiy, ozarbayjon, belorus, ukrain singari turli millat va elat vakillari yashaydi. "2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro viloyatida doimiy yashovchi chet el fuqarolari ham bo'lib, bular jami 667 nafarni tashkil qiladi. Buxoro shahar kesimida 225 nafar chet el fuqarolari doimiy tarzda yashab kelmoqdalar" [4].

2016-yil 20 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan imzolangan farmon asosida Buxoro viloyatida doimiy ro'yxatdan o'tib istiqomat qiluvchi 1600ga yaqin fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning 643 nafariga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi. Shu qatori 2020-yil 13-martda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida" qonuni asosida 1995-yil 1– yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgan va doimiy propiskadan o'tgan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan hamda ushbu qonun kuchga kirguniga qadar fuqaroligi

bo'Imagan shaxsga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi asosida yashab turgan shaxs istak bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olindi"[14]. Shu qonun asosida Buxoro viloyatida 297 nafar kishiga, Buxoro shahridan 47 nafar kishiga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, bozor munosabatlari o'tish sharoitida yillar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlarimizda o'ziga yarasha o'zgarishlar ro'y berayotganligi, oilada ko'pfarzandlikka bo'lgan qarashlarning o'zgarishi, xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga bo'lgan intilish, ayollar o'rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, ajralish va migratsiyaning ko'payishi kabi omillar tug'ilish ko'rsatgichining optimallashuviga olib keldi. Zero, Buxoroda aholi sonining o'sish ko'rsatkichi o'rtacha darajada ko'payish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Aytish joizki, O'zbekiston dunyoda o'lim ko'rsatkichi eng past bo'lgan mammakatlar qatoriga kiradi" [1,b.18]. O'z navbatida, tug'ilganlar sonining nisbatan ortishi va o'lganlar sonining kamayib borish tendensiyasi tabiiy o'sish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, viloyatda yoinki mammakatimizda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining o'sishi ijtimoiy tizimlar rivojlanganligi darajasini belgilovchi asosiy mezondir.

#### Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduramanov X.X. "O'zbekiston Respublikasi-da yangi demografik vaziyatning shakllanish xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 8, noyabr-dekabr, 2013 yil
2. Buxoro viloyati yillik statistik to'plami. 43-bet, 2005 yil.
3. Buxoro statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
4. Buxoro viloyat ichki ishlar boshqarmasi, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi ma'lumotlari.
5. Insontaraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2012. – 321 b.
6. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 1. Бухара. Ташкент, 1926. С. 149, 262, 270
7. Murtazoeva R.H. O'zbekistonda millatlara munosabatlar va bag'rikenglik –T.: "Universitet", 2007.-B.128.
8. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. С-13.
9. Статистические сведения по городам и волостям уездов Самаркандинской области за 1897 г.– Самаркандин, 1898 г –С.8.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi 68-sonli qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).*

10. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург, 1843; Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и

народностей и сведения об их численности. – Живая старина. Вып. 3-4. СПб., 1896.

11. G'ulomov I. "XIX asr oxiri Turkistonda aholini ro'yxatga olish tadbirlarining boshlanishi", <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-51>, 380 b.

[www.demoscope.ru/weekly/ssp/sng89\\_reg2.php](http://www.demoscope.ru/weekly/ssp/sng89_reg2.php)

12. <https://lex.uz/>. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida", Q-610-son.13.03.2020